

21-MART - NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMI!

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:11 (66968)

2014-yil
17-mart



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

*Borliq yasandi bedor, Navro'zimiz muborak,
Ko'ngilga ko'chdi gulzor, Navro'zimiz muborak!*



OQILA, BILIMDON, LOBAR QIZLAR

3-bet

Bangladesh Janubiy Osiyoning janubi-sharqida joylashgan davlat. Ushbu mamlakat g'arb, sharq, shimol tarafdin Hindiston bilan va janubda esa Bengal qo'ltig'i bilan chegaradoshdir. Bangladesh so'zining ma'nosi bengal tilidan «Bengallar yeri» deb tarjima qillnadi.

Bangladesh 1971-yil 26-martda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Bu davlat hududida uchta yirik daryo – Ganga, Brahmaputra va Meghna bilan birga ko'plab kichik daryolar va kanallar oqib o'tadi. Tolmon yam-yashil yerlar Himolay tog'larining janubi-g'arbiy tomonlarida yastangan. Mamlakatning janubi-sharqiy qismida esa balandligi 244 va 610 metrgacha yetadigan u qadar katta bo'lgan

adirlar mavjud. Eng ulkan tog'lar Chittagong shahrining janubi-sharqiy tomonida joylashgan.

Dakka shahri, mana 400 yildirki, Bangladeshning poytaxtidir. Chittagong, Rajshahi, Khulna, Barisal, Sylhet, Dakka shaharlari mazkur davlatning asosiy 6 ta yirik markazlari hisoblanadi. Shuningdek, Bangladesh 64 ta ma'muriy viloyatlar va 483 ta kichik shaharlarga ega.

Ayni vaqtda Bangladesh aholisining soni 150 million kishidan iborat. Aholining 77 foizi qishloq joylarida yashaydi va 50 foizi dehqonchilik bilan kun kechirishadi. Bangladesh xalqi guruch va baliqdan tayyorlangan taomlarni sevib iste'mol qiladi.

SIZLARNI OMADLI XALQ, DEGIMI KELADI,

– deydi Bangladesh Xalq Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Mosud MANNAN janoblari.

– Yoshligimdan o'z Markaziy Osiyoga kelish orzum edi. Ayniqsa, O'zbekistonni ko'rishga juda oshiqardim. Yurtingizga keldim-u, O'zbekiston tasavvurimdagidan ham ko'ra go'zal diyori ekaniga guvoh bo'ldim. Bu yurtning tarixiy obidalari meni butkul o'ziga rom etdi. Odamlarining mehmondo'stligi, ko'chalarning ozodaligi, taomlarining mazaliligi e'tiborimni tortdi. O'zbek yozuvchi va shoirlarining asarlari meni qiziqtirib qoldi. Ayni damda Alisher Navoiy g'azallarini bengal tiliga tarjima qilayapman. Zulfiya she'riyatining shaydosiman, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini bolalik yillarimdayoq bengal tilida o'qib chiqqanman. O'zim ham ba'zan she'rlar mashq qilaman.

Men Bangladeshda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid ko'plab tashkilotlarda faoliyat yuritganman. Shu bois, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va ma'naviyati meni hamisha qiziqtirib keladi. Ish yuzasidan dunyoning ko'plab davlatlarida bo'ldim. Biroq, ular ichida O'zbekiston butkul o'zgacha.

Bugun o'zbekistonlik bolalarga berilgan imkoniyatlar bilan tanishar ekanman, hayratim oshgandan oshaveradi. Yoshlar uchun qayg'uradigan, ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berayotgan Prezidenti bor ekan, demak, bu yurtning kelajagi porloqdir. Ko'p bora

eshitganim, «O'zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati», degan gap qanchalik to'g'ri ekanligini amalda ko'rib, bilib turibman.

O'zbekistonlik bolalardan esa faqatgina puxta bilim olish, tinmay izlanish talab etiladi. Bu yo'lda siz aziz o'g'il-qizlarga omad tilayman va insoniy fazilatlar sizlarni hech qachon tark etmasin, deymen.

Navro'z bayramingiz muborak bo'lsin!



Botaligimda bo'lib o'tgan bu voqeani tez-tez yodga olaman. Esimda, o'shanda 3-sinfda o'qirdim. Bir kuni dadam meni yonlariga chaqirib, «O'g'lim, inson uchun dunyoda eng sodiq do'st kitobdir. Agar kelajakda elga nafing tegishini istasang, meni, onangni sen bilan faxrlanib yurishimni xohlasang, u bilan doim birga bo'ls», dedilar-da, qo'limga kitob tutqazdilar. Bu Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq do'mi minib» nomli asari edi.

MUTOLAA ZAVQI

Men kitobni bir hafta deganda o'qib tugatdim. So'ng, dadamning oldilariga kelib, bu asardan olgan taassurotlarimni birma-bir aytib berdim. Dadam so'zlarimni diqqat bilan eshitdilar-da, «Barakalla, o'g'lim», deya boshimni asta silab qo'ydilar.

Ana shu voqea sabab, kitob eng yaqin do'stinga aylandi. Shukurki, hali ham kitobni sira qo'lmdan qo'yamayman. U bilan bo'ladigan muloqotni esa hech nimaga almashmayman...

Istiqlol yillarida yoshlarimiz ong-u shuurida, dunyoqarashida bemisli o'zgarishlar ro'y bergani bugun barchamizga ayon. Bularning bari yurtimizda yosh avlod kamolotiga, ularning bilim olishi, o'z iqtidorini namoyon etishi uchun yaratib berilayotgan sharoitlar samarasidir. Qolaversa, keyingi yillarda o'quvchilar o'rtasida gazetonlik, kitobxonlikni keng targ'ib etish, ular qalbida ijodga, adabiyotga mehr uyg'otish, ayniqsa, bu jarayonda oilaning, mahallaning tutgan o'rini mustahkamlash borasida ham muayyan ishlar olib borilmoqda. 2014-yilning «Sog'lom bola yili» deb nomlanishida ham yosh avlodni nafaqat jismonan, balki ma'nadan barkamol bo'lib kamolga yetishini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassamdir.



Kuni kecha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bo'lib o'tgan bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashining yillik hisobot yig'ilishida ham bu haqda atroflicha so'z bordi.

Tadbirida Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar

Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Kavsar Turdiyeva kabi taniqli bolalar yozuvchi va shoirlari, respublika bolalar nashrlari ijodiy xodimlari hamda adabiyotga ixlosmand o'quvchi yoshlar ishtirok etishdi.

Yig'ilishni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali kirish so'zi bilan ochdi. So'ng, uyushmaning bolalar va o'smirlar adabiyoti kengashi raisi Ashurali Jo'rayev so'zga chiqib, bugungi globalashuv davrida har bir millat o'zligini, milliy urf-odatlarini saqlab qolishi muhim masala ekanini, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni chetdan bo'layotgan axboriy xurujlardan himoya qilish zarurligini ta'kidlab, bunda bizga eng yaqin ko'makchi kitob va albatta, gazeta va jurnallar ekanini aytib o'tdi. Shuningdek, yig'ilishda ishtirok etgan yozuvchi va shoirlar ham bolalar adabiyotining bugungi kundagi vazifalari haqida o'zlarining qimmatli fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Sa'dullo TURSINOV

BIZDAN BAXTLI INSON YO'Q

«Bir tilni bilgan bir inson, ikki tilni bilgan ikki inson», deyishadi. Prezidentimizning «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroridan so'ng o'g'il-qizlar orasida til o'rganishga qiziquvchilar soni ko'paygandan ko'paydi. Ana shunday yoshlardan biri Sayyora Rahimovadir.

Sayyora 2013-yilda Bangladesh davlatida olti oylik grant o'quv dasturiga binoan Savar viloyatining Gonobishvabidyalay universitetida bengal tili mutaxassisligi bo'yicha tahsil olib qaytdi.

– Buning uchun, avvalo, davlatimizga, qolaversa, Toshkent davlat sharqshunoslik institutining Janubiy Osiyo tillari kafedrasiga, Bangladeshning O'zbekistondagi elchixonasiga o'z minnatdorchiligimni izhor etaman, – deydi Sayyora Rahimova. – Men o'z magistrlik darajamni Hindistondagi Javoharlal Neru nomidagi universitetda tugallab, janubiy Osiyoning yana bir go'zal davlati bo'lmish Bangladeshda ham o'z faoliyatimni davom ettirganimdan va qolaversa, ushbu davlatning tilini o'rganganimdan juda xursandman. Bangladeshliklarning mehmondo'stligi va mehribonchiligi xuddi biz o'zbekistonliklarga o'xshab ketarkan.

Bayramlarni sanab o'tsam, avvalambor, hayit ayyomlari, «Pahela Falgun» – bahor festivali, «Pahela Baishakh» – konsert dasturining nishonlanishi, «Barsa Baran» – yomg'irni qutlash, «Sharadiya Utsab» – kuzgi festival kabi mavsumiy bayramlarni ko'rib, Bangladesh xalqi bilan yanada yaqinroq tanishdim.

Mustaqilligimiz sharofati ila biz yoshlar dunyoning istalgan davlatida tahsil olish imkoniyatiga egamiz. Mamlakatlararo tinchlik, totuvlik, do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashda o'z hissamizni qo'sha olsak, bizdan baxtli inson yo'q.

Feruza SOYIBJON qizi
yozib oldi

«Jondan aziz farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni bolalikdan boshlab zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, madaniyat va sportga oshno etish, urf-odat va marosimlarni davr talablari bilan uyg'unlashtirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda siz, muhtarama ayollarimizga, sizlarning aql-zakovatingiz, jonkuyarlik fazilatlaringizga tayanaman».

OQILA, BILIMDON, LOBAR QIZLAR



Bu so'zlar yaqinda muhtaram Prezidentimizning 8-mart bayrami munosabati bilan yurtimiz xotin-qizlariga yo'llagan tabrigida aytib o'tildi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarga yuksak hurmat-ehtiroam ko'rsatish, ijtimoiy hayotdagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ma'naviy, intellektual salohiyatini rivojlantirish va yuzaga chiqarish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buni birgina 1999-yilda Yurtboshimiz tashabbusi bilan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta'sis etilishi misolida ko'rishimiz mumkin.

«Men Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'lishni orzu qilaman», degan gapni deyarli har bir iqtidorli, izlanuvchan, ijodkor qizlardan eshitishimiz mumkin.

Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida iqtidorli qizlar orasidan eng saralari saralab olindi. A'lo xulqi, zukkoligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari, tashabbuskorligi bilan noyob iste'dodini namoyon etayotgan hamda adabiyot,

madaniyat, san'at, ta'lim va sport sohalaridagi alohida yutuqlari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri qizlari Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Eng quvonarli, bu yil Davlat mukofoti bo'yicha ko'zda tutilgan 14 nafar emas, balki 16 nafar qizlar o'z orzulariga erishishdi.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari — Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi **Shohsanam Usubjanova**, Qoraqalpog' davlat universiteti qoshidagi 1-akademik litseyining 2-bosqich o'quvchisi **Ayjamal Joldasbayeva**, Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi **Nasiba Rominova**, Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 122-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi **Xurshida Hakimova**, Buxoro tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi **Mohinur Namozova** yuksak mukofot uchun o'z minnatdorchiliklarini izhor etishar ekan, bundan keyin ham chuqur bilim olish uchun izlanishda davom etishlarini, qolaversa, jamiyat hayotidagi faolliklarini yanada oshirishga so'z berdilar.

Biz esa niyatingiz ijobat bo'lsin, deya tilak bildiramiz. Barcha — 16 nafar Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalariga qarata, ko'ksingizga yarashib turgan, xalqimiz ardog'idagi sevimli shoirimiz Zulfiyaxonimning siymosi aks ettirilgan ko'krak nishoningiz muborak bo'lsin, deymiz!

Aziz bolajonlar, orangizda o'z iqtidori va salohiyati bilan turti ko'rik-tanlovlarda, «Bilimlar bellashuvi»da faol ishtirok etayotgan o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etsa kerak-a? Bugun biz sizlarni yutuqlar sari dadil odimlayotgan ana shunday iqtidorli tengdoshlaringiz bilan tanishtiramiz.

IQTIDORLI IRODA

Sinfimizda a'lochi, bilimdon o'quvchilar talaygina. Ana shunday o'quvchilardan biri Iroda Shomirzayevadir. Dugonam o'zining tirishqoqligi, xushmuomalaligi, qolaversa, fanlarni yaxshi o'zlashtirishi bilan barchamizga o'rnak bo'ladi. Chevarchilik va pazandalikni o'rninga qo'yadigan bu sinfdosh dugonam sportning badiiy gimnastika turi bilan ham muntazam shug'ullanib keladi. Iroda shu kungacha viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etib, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan.

Biz mana shunday iqtidorli tengdoshimiz borligidan faxrlanamiz. Kelajakda uning Vatanimiz sharafiga xalqaro musobaqalarda ham munosib himoya qilishiga ishonamiz.

Adiba ABDURAIMOVA,

Samarqand viloyati, Qo'shrobt tumanidagi 85-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

DUGONAM HAQIDA SO'Z



Sinfidoshim Charos ona tili va adabiyot faniga juda qiziqadi. Bo'sh vaqtlarida kitob mutolaa qilishni, she'r yozishni yoqtiradigan tengdoshim har yili o'tkaziladigan «Bilimlar bellashuvi»da faol qatnashib, 1-, 2-o'rinlarni egallab kelmoqda. Shuningdek, u tuman miqyosida o'tkazilgan «Kim ko'p she'r biladi?» tanlovida ham 1-o'rinni qo'lga kiritgan. Bu iqtidorli dugonamning yutuqlarini sanab, adog'iga yetolmaysiz. Uning kelajakda bundan-da yuksak marralarni zabt etishiga tilakdoshmiz.



Marjona ERGASHEVA,

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

AFSONALAR OLANIDA

Kuni kecha poytaxtimizdagi Madaniyat va san'at ko'rgazmasi zalida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi hamkorligida «Dunyo xalqlari afsonasi» deb nomlangan ko'rgazma tashkil etildi.



Mazkur ko'rgazmadan kulolchilik, chinni, gobelen, batik, rang-tasvir asarlari va qo'lda yasalgan buyumlar joy olgan. Ayniqsa, taniqli o'zbek rassomi Ahmad Boboyevning afsona va rivoyatlar asosida chizgan rasmlari ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, qadimgi o'zbek, yunon afsonalari asosida yaratilgan Farhod va Shirinning kichik haykalchalari, Midas siymosi, Dedal va Ikar eposiga ishlangan Ikar siymosidagi ko'za, milliy an'analarimiz ufuq turagan kulolchilik anjomlari va chinni buyumlar tadbirga

kelgan mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ko'rgazmada Xolida Toirova, Ruslan Qodirov, Valeriya Ilina kabi yosh ijodkorlarning ijod namunalari ham uchratish mumkin.

Bu yerga kelgan yoshlar ko'rgazmadan olgan taassurotlari haqida «Tashrif buyurganlar» daftariga o'z fikr va mulohazalarini yozib qoldirishdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA

KO'CHAT EKIB, BOG' YARATAMIZ

O'shanda 6-sinfda o'qirdim. Sinf rahbarimiz qishning oxirgi kunlarida darsdan so'ng dabdurustdan bahorni kim qanday kutib olmoqchi ekanligi haqida so'radilar. Hali o'ylab ko'rmaganimiz uchun bir narsa deyolmadik. Bu g'alati holatdan ustozning o'zlari bizni yana chiqarib oldilar.

– Bahor yasharish, uyg'onish fasli. Uni bog'lar, ko'chalar atrofini tozalab, ko'chat ekish bilan kutib olish kerak. Birgina terak havoni qanchalik tozalab, bog'larni shamol-u bo'ronlardan himoya qilishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a!

Ustozni hammamiz yaxshi ko'radik. Shu bois, u kishini quvontirish uchun bahor kelishi bilan hovlimiz oldidagi ariq bo'yiga bir qator qilib terak novdalarini suqib chiqdim. O'qituvchimiz aytganlaridek, terak joy tanlamas ekan. Sal o'tmay, novdalarim kurtak



chiqarib, barg yoza boshladi. Sinfdoshlar bir-birimiznikiga borib, ko'chatlarimizni qanday rivojlanayotgani bilan qiziqardik. Eng asosiysi, biz har yili bahorni manzarali va mevali ko'chatlar ekish bilan qarshilaydigan bo'ldik. Otamning aytishlaricha, mening teraklarim yana ikki-uch yildan keyin imorat ishlariga qo'l kelar ekan.

Maqolani o'qiyotgan do'stim «Biz ko'p qavatli uyda turamiz-ku, bunday imkon bizda yo'q», deyishlari mumkin. Biroq, xulosa chiqarishga shoshmasligingizni so'radim. Men ko'p qavatli uyda turadigan onaxonni bilaman. U kishi har kuni erta tongdan uylari oldidagi maydonchada o'zlari o'stirgan gullarni sug'oradilar. Behi, olcha, tut kabi ekkani mevali daraxtlarini parvarishlaydilar. O'sha atrofda yashovchi kishilar bu mo'jazgina bog'ni «Dono xola bog'i» deb e'zozlashadi.

Ukajonim! Siz ham bu yilgi bahorni ko'chat ekish bilan kutib oling. Ishoning, bu mashg'ulot sizga olam-olam zavq bag'ishlaydi.

Yusuf **ABDULLAYEV**

«GULCHEHRALAR» TUFASI

Yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalarida Navro'z ayyomi keng nishonlanmoqda. Yaqinda poytaxtimizdagi «Gulchehralar» nomli 448-maktabgacha ta'lim muassasasida ham bayram tadbiri o'tkazildi. Kechada maskan tarbiyalanuvchilari o'zlarining ajoyib sahna ko'rinishlari, yod olgan she'r va qo'shiqlar guldastasini mehmonlarga tukfa etishdi.

Kichik guruh tarbiyalanuvchilari Mubinaxon, E'zozaxon va Arslonbek tomonidan bahorni tarannum etuvchi ingliz tilidagi qo'shiq va she'rlar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

– Hozirgi kunda bizning 448-MTMda 330 nafar bolajonlar tarbiyalanishmoqda.



Barcha guruhlarda ingliz tili, raqs va sport mashg'ulotlari muntazam o'tkazilmoqda. Kelgusida qo'shimcha yangi to'garaklar tashkil etishni rejalashtirganmiz, – deydi maskan mudirasi Shohista opa Qudratullayeva.

Tadbir so'ngida jazzi raqqosalar tomonidan ijro etilgan raqs bayram qatnashchilariga quvonch ulashdi.

Najmiddin **TO'RAYEV**

«Tong yulduzi» gazetasini maktabimizning o'quvchilari sevib mutolaa qilishadi. Shu sababli, ular tahririyat xodimlarini Navro'z ayyomi bilan tabriklash istagini bildirishdi.

MAKTABIMIZDA BAYRAM

Men esa o'quvchilarning bu istaklarini amalga oshirish bilan birga, sizlarga ta'lim maskanimizda bo'lib o'tadigan har bir bayram tadbiri ko'tarinki ruhda o'tkazilishini aytib o'tmoqchiman. Ijodkor o'quvchilarimiz bayramda she'riy mashqlaridan namunalari o'qishsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari ustozlari Malohat Matqurbonova boshchiligida



qo'g'irchoq teatrini namoyish etishadi. Bolajonlarimizning ana shunday ijodkor va san'atsevar bo'lib ulg'ayishlarida «Tong yulduzi» gazetasining o'rmi beqiyos.

Fursatdan foydalanib, maktabimiz o'qituvchi va o'quvchilari nomidan gazetaning barcha xodimlarini kirib kelayotgan Navro'z ayyomi bilan samimiy qutlayman. Barchangizga sihat-salamatlik, ishlaringizda omad tilayman!

Fotima **BOLTAYEVA**,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi
26-maktabning boshlang'ich xotin-qizlar qo'mitasi raisi

UMIDJONLARDAN BIRI

Sharoit taqozosi bilan yangi uyga ko'chib o'tdik. Avval Mirzo Ulug'bek tumanining Darxon mahallasida turardik. Endi shu tumanning «Bo'z-2» deb ataladigan joyida yashayapmiz.



Bahorning ilk kunlaridan birida do'kondan ul-bul xarid qilib chiqayotсам, bir bo'ychangina bola yugurib kelib, qo'limdan narsalarimni oldi.

– Xola, keling, yordamlashib yuboraman...

Darxonda bunaqa manziratga o'rganib qolgan edim. Yordamga

shoshilgan bolalar gohu, gohu bu qo'shning bolasi, gohu esa o'g'limning ukajorralari bo'lardi.

Bu bola esa notanish... Biroq o'ng'aysizlandim. Avvalgidek:

- Ha, chopqilla, to'yingda «yor-yor» aytay, – deya olmadim. – Qo'yavering, yukim og'ir, – dedim.
- Xijolat bo'lmang, xola, bering, – deb qo'yarda-qo'ymay yukimni oldi. Uygacha olib kelib berdi.

«Bu zamonning bolalari u-bu deymiz-ku, aslida hammasi tarbiyaga bog'liq, baraka topsin ota-onasi», degan o'ylar bilan boladan hech narsa so'ramabman, «rahmat», deb qolaveribman.

Oradan bir hafta o'tib, yana shu manzara takrorlandi. Bu gal endi u bilan tanishib oldim, yo'l-yo'lakay suhbatlashib keldim. Bolaning ismi Umiddjon, familiyasi Shukurov bo'lib, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 49-umumta'lim maktabining 6-«B» sinfida o'qir ekan.

- Qaysi fanlarga qiziqasiz?
- Jismoniy tarbiya, tarix, matematika fanlarini yaxshi ko'raman.
- Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
- Haydovchi bo'laman...

Umiddjonning orzusiga bugundan qilayotgan ishlari mos tushadi. U yo'llarda odamlarga yordam berishdan huzur qilar ekan. Burro-burro gapiradigan pishiqqina bu bolaga qarab sinf rahbari Gulmiraxon, onasi Zahroxonni tasavvurimda tikladim.

Ehtimol, ular Umiddjonga hech qachon birovning yukini ko'tarishib yubor, deyishmagandir. Biroq, o'z ishlari, yaxshiliklari bilan farzandi, o'quvchisiga ibrat ko'rsatgandir... Har qalay, oramizda Umiddjonday ziyarak, qadriyatlarimizga ehtiromli bolalar ko'pligidan xursand bo'ldim.

Qutlibeka **RAHIMBOYEVA**,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Dorda raqsga tusha oladigan dorbozning harakatlari kimni hayratga solmaydi, deysiz?! Ayniqsa, siz bolajonlarni dorbozning uzun arqon ustida qanday qilib gavda muvozanatini saqlay olishi ajablantirsa kerak-a? Unday bo'lsa, Farg'ona shahridagi 10-maktabning 9-sinf o'quvchisi, yosh dorboz Sherdorbek Iminovning biz bilan suhbatda aytgan gaplariga quloq tuting:

NAVRO'Z TANTANASIDA ISHTIROK ETAMAN



Z. NISHONOVA ulagan surat

- Dorbozlik san'atiga qiziqaman, deydi tengdoshingiz Sherdorbek.

- Asli biz Tursunali polvonning avlodlarimiz. Shu sababli, ikki yoshimdan dorbozlik san'atiga qiziqqan ekanman. Ilk bor menga dor ustida yurish va langar cho'p bilan ba'zi mashqlarni mustaqil bajarishni tog'am Baxtiyor Mamajonov o'rgatganlar. Bugun esa dorbozlikka bo'lgan mehrim tufayli poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy bog'ida bo'lib o'tadigan Navro'z bayramida ishtirok etish baxtiga muyassar bo'ldim.

Sherdorbekning dor ustidagi mashqlarini kuzata turib, uning mahoratiga tan bergach, Baxtiyor

dorboz deya nom chiqargan tog'asidan ushbu san'at turi haqida so'zlab berishlarini so'radik:

- Bobomlarning aytishlaricha, dorbozlik taxminan ikki yarim ming yil avval paydo bo'lgan ekan. Aslida ochiq maydonlarda o'tkaziladigan tomoshalar bugungi kunda sirk san'atining ham bir janriga aylangan. Ba'zi tarixiy manbalarda Amir Temur saroyida ham ajoyib dor o'yinlari ko'rsatilgani yozib qoldirilgan. E'tiborlisi, bugunaga kelib dorbozlik O'zbekistonning barcha hududlarida, ayniqsa, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan.

Bolajonlarni dorning balandligi necha metr bo'lishi qiziqtirsa kerak-a? Dorbozlar 25 - 30 metr balandlikdagi ustunlarga qiya qilib tortiladigan arqon ustida langarcho'p bilan bo'ladigan o'yinlarni, turli mashqlarni bajarishadi. Dorda nafaqat bitta, balki ikki-uchta dorboz birgalikda tomoshalar ko'rsatishi mumkin.

Suhbatimiz yakunida esa uch yoshli Boburmirzo bilan ham yaqindan tanishdik. U sulolaning eng kichik vakili ekan. Boburjonning mashqlarini kuzata turib, kelajakda mohir dorboz bo'lib yetishishiga tilak bildirdik.

Sayyora QODIROVA

BU MUQADDAS VATANDA AZIZDIR INSON

Yurtimizga bayramlar yarashadi. Bayramlar shodiyonalarga ulanib boraveradi.

Yaqinda poytaxti-mizning Uchtepa tumanidagi 106-maktabning 3-«A» sinf o'quvchilari ustozlari boshchiligidagi adabiy-musiqali kecha o'tkazishdi. Kechaga tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi xodimlari, maktab o'qituvchilari hamda ota-onalar taklif etildi. O'quvchilar tomonidan ifodali o'qilgan she'r va quvnoq topishmoqlar qo'shiq va raqslarga ulanib ketdi. Teatrlashtirilgan kichik sahna ko'rinishlari esa tadbir mehmonlariga manzur bo'ldi.



- Biz ustoz Ma'mura Yaylovovanning bunday maroqli, ta'sirchan, qiziqarli tadbirlarida ko'p ishtirok etganmiz, - deb so'z boshladi Toshkent shahar Xalq ta'limi

Bosh boshqarmasi metodisti Dilfuza opa Toshmuhammedova. - O'quvchilarning zukkoligi, nutqlarining ravonligi kishini behad quvontiradi.

Milliy kiyimlardagi qizlar raqsi, sho'x-shodon qo'shiqlari, o'g'il bolalarning Bobur Mirzo, Amir Temur kabi buyuk bobolarimizning siymolarini gavdalandirishlari ishtirokchilarga manzur bo'ldi.

Tadbirda kelgan mehmonlar bayram tashkilotchilariga o'z minnatdorchiliklarini izhor etdilar.



Muzaffar AHMEDOV.

Suratlar muallifi: M. AZIMOV

Aziz o'quvchilar, bahor faslini Navro'z bayramisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bayramlarni ingliz tilini o'rganamiz! esa gullarsiz. Shunday ekan, keling, bahor gullarini ingliz tilida o'rganamiz!

Let's learn English!

SPRING COLOURFUL FLOWERS

You know dear pupils in our country we can not imagine spring without Navruz holiday and holidays without flowers. Then ... Lets learn spring colourful flowers in English!

Chrysanthemum (Momaqaymoq)



Daisy (Moychechak)



Orchid (Orxideya)



Daffodil (Nargis)



Lily (Nilufar)



Rose (Atirgul)

Lets find spring flowers names by these expressions:

1. Type of garden flower with a large, bushy head is Bog'da o'sar ushbu gul, mayin, sariq boshli u ...
2. White flower with a yellow centre is O'rtasi sariq, gulbarglari oq bo'lgan gul bu ...
3. This is brightly-colored and unusually shaped flower is Yorqin rangli va o'zgacha shaklga ega bo'lgan gul bu ...
4. Beautiful spring flower grown from a bulb is Bahorning lampochkasimon go'zal guli bu ...

Tulip (Lola)



Violet (Binafsha)



O'zDJTU talabasi Dinara SHAKIROVA tayyorladi

BIR YANGI KUN KELDI, QUTLUG' YANGI KUN!

*Quyosh yer yuzini yoritdi. Mehrdan uyg'ongan maysalar
shivirlab g'irlarga chiqdi.*

Buloqlar ko'z ochdi. Bahor borliqqa jon ato etdi. Sayroqi qushlarning beg'ubor xonishi olamni tutdi. Gullarning hajrida yonib ado bo'lgan bulbullarning sog'inch to'la dil navolari ko'ngilga orom bag'ishlaydi. Yalpizlarning ifori jildirab oqayotgan suvlarni go'yo sarxush aylayotgandek. Bolalar ko'chalarni to'ldirib g'ildiraklarini g'izillatishadi. Bundan zavqlangan rassom

tabiat yer-u ko'kka beminnat rang sochadi. Biz esa yurtning qiyosiga qiyos izlaymiz. Yurakning qat-qatidan quyilib kelayotgan jarangdor so'zlarni zudlik bilan satrlarga tizishga oshiqamiz.

*Bir yangi kun keldi, qutlug' yangi kun,
Maysalar yugurib qirlarga bordi.*

*Shodligin yashira olmasdan butun,
Daraxtlar bir kunda gullab yubordi...*

Qalblarini bahoriy kayfiyat zabt etgan o'g'il-qizlarimiz o'zlarining dil izhorlarini xatjildlarga joylab, uchirma qilishadi. Hamal nafasi ufurgan dilmomalar bizga zavq ulashadi.

*Bir yangi kun keldi, topolmadim so'z,
Qalbm daftarini ming bor izladim.
Yurgan yo'llaringa gul sochdi Navro'z,
Shodlikdan gullarni quchib yig'ladim!*

Aziz o'quvchi! Biz sizning bolarilar kabi shirin so'z izlashga oshiqib yurganingizdan xabardormiz. O'ylaymizki, she'riyat zavqi hech qachon qalbingizni tark etmagay. Bugungi tayyorlagan bahoriy guldastamiz, albatta, sizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz!

AXTAMQULI



Tongda bulbullarning xonishi kelar,
Maysalar ashkini artadi Quyosh.
Tuproq'ingda ungan har bir giyohing,
Gul qishlog'im, deya ko'targaydir bosh.

Yashillikdan libos kiygan dalalar,
Husningga ko'rk qo'shar bo'lib jilvakor.
Jo'shib oqayotgan ariqdagi suv,
Daraxt qulog'iga shivirlar takror.

Xush havo bag'ringda kezib ohista,
Soflik-la borliqni aylar beg'ubor.
Yog'dularga to'la har go'shang aro,
Baxtning chechaklari tarovati bor.

*Ro'zixon SHOKIROVA,
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa
tumanidagi 1-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi*



Soylarda suvlar oqar,
Maysalarga xush yoqar.
Qirda lolaqizg'aldoq,
Ko'z ochar yangi buloq.

Yaylovda poda boqib,
Olamiz undan qaymoq.
Navro'z kirib keladi,
Uyda bug'doy unadi.

Pishiramiz sumalak,
Osmonda laylak uchar.
Hammayoq ko'karadi,
Ko'nglimiz yasharadi.

*Burgutali YUSUPOV,
Namangan viloyati, Mingbuloq
tumanidagi 16-umumta'lim
maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi*



Chug'urib sho'x qaldirg'och,
Deydi: tezroq eshik och.
Bahor nomli otida,
Sabolar qanotida –
Navro'zi olam keldi.

O'sdi qirda boychechak,
Go'yoki bir oychechak.
Undi maysa dalada,
Ayni bir zo'r pallada –
Navro'zi olam keldi.

Qizlar sochi jamalak,
Chiqdi ko'kka kamalak.
Doshqozonda sumalak,
Atrofida qirq malak –
Navro'zi olam keldi.

Barg yozadi chuchmoma,
Eshigingni och, momo.
Bu kun tinchlik, obodlik,
Yurtimizda ozodlik –
Navro'zi olam keldi.

*Mahbuba ABDULAZIZOVA,
Toshkent shahridagi
72-umumta'lim maktabining
6-«B» sinf o'quvchisi*

HAMAL – AMAL

Shohjahonning momosi bu yil ham bug'doy undirdi. Qo'ni-qo'shnilar ularmikiga to'plangan. Shohjahon qo'lidagi turli shakldagi toshchalarni suv to'la kosaga soldi-yu, undirilgan bug'doy maysalarini maydalab o'tirgan momosining yoniga chopdi.

– Momojon, nega kuzda sumalak pishirib bo'lmaydi?

– U bahor taomi, bolam. «Ilik uzildi» chog'ida tanninga darmon, yuragingga quvvat bo'ladi. Undagi foydali ne'matlar yil davomida horigan vujudiga kuch bag'ishlaydi.

– «Ilik uzildi» nima degani? – momosini yana savolga tutdi bolakay.

– Qish oxirlab, ko'klam kelar chog' jismimiz turli darmondorilarga muhtojlik sezadi. Mana, o'zing ham shu kunlarda biron uyquchi bo'lib qolding. Sumalak, ko'k somsa, ko'k chuchvara kabi bahoriy taomlar esa tanangning vitaminlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Shohjahon momosini juda yaxshi ko'radi, so'zini aslo ikki qilmaydi. Urush yillarini ko'rgan momo doimo nabiralarga, ozod va obod kunlarning qadriga yetinglar, deydi.



Yordamga birin-ketin qo'shnilar chiqqa boshlashdi. Biri mosh, biri yog', yana birisi esa un, guruch ko'tarib chiqibdi. Bu masalliqlar momo pishiradigan «sumalak oshi» uchun.

– Sumalak – ko'pchilikning taomi. Shuning uchun ham u totli bo'ladi, katta-yu kichikni, mahalladoshlarni birlashtiradi, – dedi momo atrofini o'rab olgan bolalarga.

Katta doshqozonga sumalak solindi. Bolalar terib kelgan toshlarini yuvib kelishgach, momoga termilishdi.

– Sumalak qaynaganda, qilingan barcha ezgu-niyatlar amalga oshadi. Qani bolalarim, chin dildan niyat qilib, orzu-istaklaringni aytib, toshchalarni qozonga solinglar. Illo, nimaiki istaklaring bo'lsa, albatta, ro'yobga chiqadi, – dedi momo.

Bolalar chug'urlashib qozonga toshchalarni solishdi. Butun hovlini sumalak va bug'doy maysasining ifori tutib ketdi...

Erta sahar qozonni ochgan momoning chehrasi yorishdi.

– Sumalakning yuziga laylaklar va mevali daraxtning surati tushibdi. Bu yil serhosil va serdaromad keladi, – dedi va pichirlab duo o'qidi. Shunday kunlarga yetkazganiga shukur, deya yuziga fотиha tortdi.

Saida IBODINOVA

ORTIQ — MUSOBAQA G'OLIBI



Poytaxtimizda shaxmat bo'yicha 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida g'olib va sovrindorlar aniqlandi.

O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Shaxmat federatsiyasi hamkorligida tashkil etilgan musobaqada yuz nafarga yaqin iqtidor egalari g'oliblik uchun o'zaro bellashishdi.

O'g'il bolalar o'rtasida barcha sovrinli o'rinalar Toshkent shahri shaxmatchilariga nasib etdi. Musobaqada mag'lubiyatsiz dona surgan Ortiq Ne'matov chempionlik unvonini munosib himoya qildi. U to'qqizta partiyadan sakkizta g'alaba, bitta durang bilan 8,5 ochko jamg'arib, birinchi o'rinni egalladi.

Birinchi kunda chempiondan yarim ochko olishga erishgan Saidakbar Saydaliyev kumush medalni qo'lga kiritdi. U to'qqizta uchrashuvdan oltitasida zafar quchdi va uch bor durangga rozilik berdi.

FIDE ustasi Temur Igoninning o'yini ham muxlis-u mutaxassislar e'tiborini qozondi. O'tgan yili Gretsiyada maktab o'quvchilari o'rtasida o'tgan jahon

championatida sovrindor bo'lgan Temur mamlakat chempionatida uchinchi o'rinni egalladi. Uning asosiy raqobatchilari O.Ne'matov va S.Saydaliyevga yutqazgani uchinchi pog'onadan yuqoriga ko'tarilishiga imkon bermadi.

O'ttiz ikki nafar shaxmatchi dona surgan qizlar o'rtasidagi bahslarda poytaxtlik Svetlana Chaykina va qoraqalpog'istonlik Mohim Orazmuhammedova sakkiztadan ochko jamg'ardi. Biroq, qoraqalpog'istonlik shaxmatchi o'zaro uchrashuvda S.Chaykinaga yutqazgani bois, qo'shimcha ko'rsatkichlarga ko'ra kumush medal bilan kifoyalandi. Xorazmlik Nilufar Yoqubboyeva oxirgi turda toshkentlik Yuliya Xegayni mag'lubiyatga uchratib, musobaqani kuchli uchlikda yakunladi.

Mamlakat chempionatining g'olib va sovrindorlari terma jamoamiz safida xalqaro miqyosdagi nufuzli musobaqalarda yurtimiz sharafini himoya qiladi.

Shoh MUHAMMAD

Mana, yurtimizga intiqib kutganimiz bahor fasli ham kirib keldi. Bu orada g'ayrati ichiga sig'maydigan, sho'x-shodon bolajonlarimiz bahorgi xalq o'yinlarini o'ynashni boshlab yuborishdi. Quyida Sizlarga «Quvlashmashoq» o'yini haqida ma'lumot beramiz.

QUVLASHMASHOQ O'YINAYMIZ



O'yinda 15 – 20 ta bola ishtirok etishi mumkin. O'yin tashkilotchisi o'zidan boshlab shu o'yin uchun to'qilgan so'zlar bilan davrada turgan bolalarni sanay boshlaydi. Jumladan, «Onam bergan olmalar, ishonmasang, sanab ko'r, bir, ikki o'n olti, o'n olti deb kim aytdi, dono Salimjon aytdi, Salimjon mudom bor bo'lsin, doim besh baho olsin. Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti-ketdi». Oxirgi «ketdi» so'zi davradagi qaysi bolaga to'g'ri kelsa, o'sha ishtirokchi safdan chiqib ketadi. O'yinda yana boshqacha so'zlar ham aytiladi. Masalan, «Bir, ikki, olma dikki, safar oyi, sariq chumchuq, bog'da turmay, tez uchi chiq». Bunda «chiq» so'zi qaysi bolaga to'g'ri kelsa, u safdan chiqib turadi. Sanashmashoqlardan yana biri: «Qovun palak chumak otdi, chumak emas, turvak otdi. Turvak qovun shirin ekan, qo'lim tekkan, safdan chiqdi». Bu to'rtlikdan ham «chiqdi» so'zi qaysi bolaga to'g'ri kelsa, o'sha bola safdan chiqib turadi. Oxirida bir bola safda qoladi. Ana o'sha ishtirokchi o'zidan oldin safdan chiqqan barcha bolalarni quvlaydi. Quvlayotgan bola qochayotganlardan biriga yetib borib, qo'li yelkasiga tegsa, ushlangan hisoblanadi. Keyin quvlashni ushlangan bola davom ettiradi. O'yinda shunday qoida bor: quvlayotgan bola o'tirgan bolani ushlashi mumkin emas. Shuning uchun quvlayotgan bola yaqinlashishi bilan qochayotgan ishtirokchi darhol yerga o'tirib oladi. O'rnidan turgandan so'ng, yana quvlashi mumkin. «Quvlashmashoq» o'yini shu tarzda davom etadi.

Aziz bolajonlar, siz yashayotgan hududda bahorda qanday o'yinlar o'ynaladi. Shular haqida bizga yozib yuboring. Maktublaringizni kutib qolamiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

LATVIYADAN XUSHXABAR

Yaqinda Latviya poytaxti Riga shahrida sport gimnastikasi bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda Turdixon Islomova ko'pkurash bahslarida barcha raqibalarini ortda qoldirib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Ushbu yonalishda O'zbekiston terma jamoasi umumjamoasi hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

ATLETLARIMIZDAN 10 TA MEDAL

Yosh sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki yurtidoshlarimizga olam-olam zavq ulashadi. Sportchilarimiz sharafiga bayrog'imiz ko'tarilib, madhiyamiz yangraganida esa qalblarimiz faxr-u iftixorga to'ladi.



Kuni kecha Tailandning Bangsaen shahrida og'ir atletika bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatidagi sportchilarimizning erishgan natijalarini kuzata turib, O'zbekiston og'ir atletika maktabining kelajagi porloq ekaniga, oldindagi yozgi Olimpiada o'yinlarida ana shu atletlarimiz

sovrindorlar safidan joy olishiga ishonch hosil qildik.

Yosh og'ir atletikachilarimiz o'tkazilgan ushbu nufuzli musobaqada o'zlarining bor mahorat va imkoniyatlarini namoyish etib, muxlis-u mutaxassislarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, vazni 85 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar bahsida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan Sherzod Ma'rufjonovning harakatlari, kutilmagan qarorlari raqib sportchi va murabbiylarini anchagina shoshirib qo'ydi. U shtangani dast ko'tarishda 111 kilogramm, siltab ko'tarishda 142 kilogramm, ikkikurash natijasiga ko'ra 253 kilogramm toshni o'ziga bo'ysundirib, uchta kumush medal bilan taqdirlandi. Sportchimizning ushbu ulkan g'alabasi terma jamoamizning qolgan sportchilariga ruhiy dalda bo'lib xizmat qildi. Negaki, Sherzoddan so'ng musobaqadagi ishtirokini boshlagan yana bir yosh atletimiz Fayzulla Nabiyev 77 kilogramm vazn toifasidagi sportchilar bahsida shtangani dast ko'tarishda 129 kilogramm natija qayd etib, kumush medalni qo'lga kiritdi. Quvonarlisi, Osiyo chempionatida muvaffaqiyatli qatnashgan Azimjon G'aniyev va Zufar Qodirov o'z vazn toifalarida uchtadan bronza medal sohibiga aylanishdi.

Yosh og'ir atletikachilarimizga galdagi nufuzli musobaqalarda omad tilaymiz!

O'z muxbirimiz

Iqtidorli tengdoshing

SEHRLI RANGLAR JILOSII

Bolaning murg'ak qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda maktab hayoti muhim o'rin tutadi. Negaki, bu yoshda boladagi qobiliyat va iste'dod asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi.

Iqtidorli tengdoshingiz, 6-sinf o'quvchisi Abror ISOQOV ham bolaligidan rangli qalam va turli bo'yoqlardan foydalanib, rasm chizishni yoqtiradi. Bo'sh qoldi deguncha, qo'lga qog'oz va qalam olib, ona tabiatning bor go'zalligini o'zining beg'ubor tasavvuri orqali ifoda etishga urinadi. Farzandidagi tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni o'z vaqtida ilg'agan onasi Kamola opa Tursunboyeva unga barcha sharoitni yaratib, doim rag'batlantirib bordi.

Rasm chizishga bo'lgan kuchli havas yosh rassomni poytaxtimizdagi Respublika 2-ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi tomon yetakladi. Abror ayni paytda bu yerda ustози Abdurahmon aka Nurqobilovdan rasm chizishning nozik sir-asrorlarini puxta o'rganib kelmoqda.

– Men hayvonot olamiga juda qiziqaman, – deydi Abror suhbat chog'ida. – Oynayi jahon orqali beriladigan jonivorlar haqidagi ko'rsatuvlarni miriqib tomosha qilaman. O'zim ham uyda xonaki akvariumda besh xil turdagi 13 dan ortiq baliqlarni

parvarishlayman. Har birining qaysi turga mansubligini yaxshi bilaman. Ulami o'z vaqtida ovqatlantirib, suvini yangilab turaman.

Kelajakda mohir me'mor bo'lish niyatidagi bu iqtidorli tengdoshingizga barcha orzu-umidlari ro'yobga chiqishini, buning uchun tinmay o'qib-izlanish darkorligini aytdik. Zero, mustaqil diyorumizda farzandlarimizning ilm olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Dilorom HOTAMOVA



BILASIZMI?

JONIVORLAR OLAMI

Qadrlil bolajonlar! Tinchlik dchisi bo'lgan laylaklar yurtimizga mart oyi boshlarida uchib kelishidan yaxshi xabardorsiz, shundaymi?! Ko'sh, o'zining uzun oyoqlari bilan boshqa qushlardan ajralib turuvchi laylaklar haqida yana qanday ma'lumotlarga egasiz? Quyida ana shu qush haqida ma'lumot beramiz.

Bu jonivor butun Osiyo va Yevropa bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, Hindiston, Afrika va G'arbiy Xitoyda qishlaydi. Laylaklar tanasining uzunligi 1 metrdan 1,25 metrgacha, og'irligi esa 4 kilogrammgacha yetadi.

O'zbekiston hududida og va qora laylak uchraydi, og laylak eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Uning uzun tumshug'i va oyoqlari qizil, pati og bo'lsa-da, qanot patlari qora tussadidir. Qanotlarini yoyganida, uzunligi 1,55 metrdan 2 metrgacha yetadi.

Qora laylak esa, asosan, o'rmonlarda yashaydi. U og laylakka qaraganda biroz kichikroq bo'ladi. Bu qushlar yalangliklarda, tog'larda va aholi yashaydigan hududlarga yaqin joylarda yashaydi. Laylaklar uyasi daraxtlarga, qoyalarga va minoralar tomiga quradi va har yili aynan o'sha uyaga joylashadi.

Laylak bir kecha-kunduzda ikki yuz kilometr masofani bosib o'tishi mumkin. Ularning sevimli ozuqasi qurbaqa hisoblanadi. Ba'zan esa sichqon, quyon va mayda qushlarni ham ovlaydi. Ona laylak ikkita dan sakkiztagacha tuxum qo'yib, aprel oyining oxirlarida hatsiz laylakchalarni dunyoga keltiradi. Ellik kundan so'ng fajji palahonlar qanot qoqib, ucha boshlashdi.

ZUBAYDA tayyorladi

«BAHORIIY AYYOM» MUAMMONOMASI

7	3	6	6	1	5	2	3	2	4	*	14
2	3	2	4	*	10	2	4	*	10	9	15
5	*								4	*	16
1	!								8	11	
6	*								-	8	
6	9								11	17	
10	13								3	18	
*	5	12	1	2	*	3	4	1	6	8	
!									-		
9	13	5	12	1	2	*	3	7	1	7	19

Kalit so'zlar: 1. Quyosh chiqish payti, subhidam – 11, 15, 2, 4.

2. Uch oy davom etuvchi yil mavsumi – 16, 1, 14, 6.

3. Quyosh galaktikasidagi sayyora, ona zamin – 17, 10, 5.

4. O'simlikning yer osti qismi – 3, 6, 7, 3, 9.

5. Daraxtzor maskan – 13, 5, 19, 15, 2.

6. Maqoldan: «Yer – xazina, 14, 8, 12 – oltin».

7. Zamindagi baland hudud – 11, 15, 18.

Endi shakldagi raqamlarni kalit so'zlari javoblaridagi mos harflar bilan almashtirish asosida muammonomani hal eting. Shunda bahoriy ayyom madh etilgan ikki misra she'rni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

8

17-mart 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondlari.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruza MATYUQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 54866
Buyurtma N: J 9430